



“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil, 12-13-noyabr

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY
AND TRANSLATION STUDIES”**

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV

akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboyev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic “Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

UCH TAZKIRA QIYOSI (Navoiy, Sahibey va Latifiy tazkiralari misolida)

Dilnavoz Yusupova,
ToshDO‘TAU professori, f.f.d.,
Kemal Yavuz Ataman,
Ijtimoiy siyosat fanlari doktori,
Istanbul Danışmen Danışmanlık Ltd.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/OMKW7503

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy, Sahibey va Latifiy tazkiralari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, “Majolis un-nafois”, “Hasht behisht” va “Tazkirat ush-shuaro” asarlari turkiy tazkiranavislikning uch bosqichini ifodalovchi manbalar sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotda mazkur tazkiralarning tuzilishi, tasnif mezonlari, shoirlarni baholash prinsiplari hamda til va uslub xususiyatlari solishtirma asosda tahlil qilinadi. Muallif har uch asarda tazkiraning badiiy-ensiklopedik, tarixiy-saroy va tanqidiy-biobibliografik funksiyalari ketma-ket rivojlanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada Navoiy tomonidan boshlangan turkiy tazkira an‘anasining Usmoniylar muhitida yangi ijtimoiy va madaniy kontekstda qayta talqin etilishi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *tazkira, Navoiy, Sahibey, Latifiy, Majolis un-nafois, Hasht behisht, Tazkirat ush-shuaro, qiyosiy tahlil.*

Abstract. This article provides a comparative analysis of the tazkiras (biographical anthologies) compiled by Alisher Navoi, Sahibey, and Latifi, examining *Majolis un-nafois*, *Hasht behisht*, and *Tazkirat ush-shuara* as key sources representing three stages in the development of Turkic tazkira writing. The study comparatively analyzes the structure, classification principles, poet evaluation criteria, and linguistic-stylistic features of these works. The author demonstrates that the artistic-encyclopedic, historical-courtly, and critical-bibliographical functions of the tazkira genre evolved successively across the three texts. Furthermore, the article highlights, on a scholarly basis, how the Turkic tazkira tradition initiated by Navoi was reinterpreted within a new socio-cultural and intellectual context of the Ottoman milieu.

Keywords: *tazkira, Navoi, Sahibey, Latifi, Majolis un-nafois, Hasht behisht, Tazkirat ush-shuara, comparative analysis.*

Kirish. *Tazkira* (arabcha «eslab qolish, yod etish» ma’nosida) Sharq musulmon adabiyotida shoirlar va ulug‘ zotlarning biografiyalarini jamlagan muhim adabiy shakllardan biridir. Tazkiralarning mavzusi va qamrab olingan shaxslarning kasbiy mansubligi yoki hayotiy faoliyatiga ko‘ra turlicha nomlar bilan atalgan. Masalan, shoirlar haqidagi tazkiralarning “*Tazkirat ush-shuaro*” nomi bilan, avliyolar hayotini yoritishga bag‘ishlangan tazkiralarning esa “*Tazkiratul avliyo*” deb atalgan. Musulmon Sharqida shoirlar tazkiralari nisbatan keng tarqalgan bo‘lib, bunday tazkiralarning dastlab arab va fors adabiyotlarida vujudga kelgan va keyinchalik turkiy adabiyotga kirib kelgan. Arab adabiyotida shoirlar va adiblarning tarjimai hollarini, ijodiy faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan tazkirachilik an‘analari XI asrdan boshlab shakllana boshlagan. Dastlabki namunalardan biri sifatida Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038)ning arab tilida yozilgan “*Yatimat ud-dahr fi mahosin ahl al-asr*” (“Asr ahli fazilatlarining durdonasi”) asari ko‘rsatiladi. Bu kitobda o‘z davri shoirlari va yozuvchilari haqida qisqa ma’lumotlar qalamga olingan bo‘lib, bu asar keyinchalik forsiy muhitda yaratilgan tazkiralarga poydevor bo‘lib xizmat qilgan [Browne, 1901: 212].

Fors tilida yozilgan eng qadimiy va mashhur tazkiralardan biri Muhammad Avfiy (XIII asr)ning “*Lubob al-albob*” (“Ilmlar mag‘zi”) asaridir. Unda uch yuzga yaqin shoirlarning tarjimai hollari berilgan bo‘lib, ularning ijodi haqida qisqa izohlar keltiriladi. Avfiy o‘z asarida shoirlarni ijtimoiy mavqeiga, ijodiy uslubiga qarab guruhlarga ajratgan. Shu jihati bilan “*Lubob ul-albob*” keyingi adabiy-badiiy biografik to‘plamlar uchun muhim manba sifatida qadrlanadi [Murtazoyev, 2024: 332].

XV asrga kelib fors adabiyotida tazkirachilik yanada rivojlanib, uning yirik namoyandalaridan biri Davlatshoh Samarqandiy (1430–1495) bo‘ldi. Davlatshohning mashhur “*Tazkirat ush-shuaro*”

asari o‘z davrida juda keng tarqalib, fors va turkiy muhitda katta iz qoldirdi. Davlatshoh Samarqandiy o‘z tazkirasida qadimgi va zamondosh bo‘lgan yuzlab shoirlar haqida ma’lumot beradi, ularning she’riy ijodidan namunalar keltiradi. Bu asar keyinchalik Alisher Navoiy yaratgan “Majolis un-nafois” tazkirasiga uchun ham muhim manbalardan biri bo‘lgan [Eraslan, 1996: 110].

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari ilk turkiy tazkira sifatida. “Majolis un-nafois” turkiy tazkirachilikning ilk namunasi bo‘lib, uning dastlabki varianti 1490–1491 yilda yaratilgan. Muallif 1497–1498 yillarda uni qayta ishlagan va hozirgi holatga keltirgan. Asarda 15-asrda Xuroson va qo‘shni mamlakatlarda yashab faoliyat yuritgan 459 shoir va ijodkor haqida ixcham ma’lumotlar beriladi. Ushbu ma’lumotlar yillar, jug‘rofiy hududlar, kasb-hunar, ijtimoiy tabaqa va sulolalar asosida joylashtirilgan. Asar 8 qism (“majlis”)dan iborat. Alisher Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: “...*chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sekkiz qism etildi, har qismi bir majlisg‘a mavsum bo‘ldi va majmuig‘a “Majolis un-nafois” ot qo‘yildi*” [Navoiy, 2011: 291].

Tazkiradagi shoirlar majlis, ya’ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan: 1-majlisda 46 nafar, 2-majlisda 91 nafar, 3-majlisda 175 nafar, 4-majlisda 72 nafar, 5-majlisda 21 nafar, 6-majlisda 31 nafar, 7-majlisda 22 nafar shoir, 8-majlisda esa Husayn Boyqaro b-n bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan [Yusupova, 2016: 310].

Tazkiraning birinchi majlisi “Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlarini sharafiga musharraf bo‘lmadim” degan nom bilan tasnif etilgan bo‘lib, bunda Navoiy o‘z tazkirasini “tabarruk qilmoq uchun” tasavvuf shayxlaridan bo‘lmish Xoja Qosim Anvor zikri bilan boshlaganini ta’kidlaydi.

Tazkiraning 2-majlisida Navoiy bolaligi va yigitlik paytida suhbatlariga musharraf bo‘lgan shoirlar haqida hikoya qilsa, 3-majlis o‘z davri she’riyatiga ulkan hissa qo‘shgan yuksak tab’li shoirlar haqidadir. 4-majlisda zamon fozillari – she’rda mashhur bo‘lmalar-da, ammo ba’zan latif bayt aytuvchi ijodkorlar haqida so‘z boradi. Tazkiraning 5-majlisi Xurosonning “tab’i nazmi bor” mirzozodalari zikrida bo‘lib, Davlatshoh Samarqandiy ta’rifi bilan boshlanadi. 6-majlisda Xurosondan tashqaridagi, xususan, Samarqanddagi fozillar haqida so‘z boradi. Ushbu majlis Samarqand hokimi Ahmad Hojibek ta’rifi bilan ochiladi.

7-majlis Amir Temur va temuriy ijodkorlar zikriga bag‘ishlangan. Unda Sohibqirondan boshlab Sulton Ali Mirzogacha jami 22 ijodkor (ulardan ikkitasi: Jahonshoh Mirzo va Ya’qub Mirzo temuriy emas) haqida so‘z boradi. Tazkiraning so‘nggi sakkizinchi majlisi to‘laligicha Husayn Boyqaro – Husayniy ijodiga bag‘ishlanib, uning deyarli barcha g‘azallari matla’si alifbo tartibida keltiriladi [Yusupova, 2016: 310].

Tazkirada o‘sha davr adabiy muhitidagi qizg‘in jarayon, adabiyotdagi poetik janr va turlar rang-barangligi ham ko‘rsatib berilgan. Asar jonli va ravon tilda, ixcham va sodda uslubda yozilgan. Navoiy g‘oyat siqiq jumalarga katta ijtimoiy yoki badiiy voqelik va maqsadni singdirishga intilgan. Shu ma’noda tazkira 15-asr ilmiy nasrining go‘zal namunasi hisoblanib, turkiy tazkirachilik rivojiga ulkan hissa qo‘shgan asar sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu asar keyinchalik yaratilgan ko‘plab tazkiralarga bevosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, tazkirachilik an’anasining mustaqil bir maktab sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

Sahibey va uning tazkirasiga haqida. Alisher Navoiy boshlab bergan tazkira an’analari XVI asrdan boshlab Usmonli adabiyotida yuzaga kelgan shoirlar tazkiralari bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Улар орасида Sahibeyning “Hasht Behisht” (“Sakkiz jannat”) tazkirasiga Onado‘ludagi turk tilida yozilgan birinchi tazkira бўлиб, turkiy adabiyot tarixida shoirlar haqidagi ma’lumotlarni tartibli tarzda bayon etish, tabaqalarga ajratish va ularning ijodini ilmiy asosda tahlil qilish jihatidan muhim manba hisoblanadi.

Sahibey o‘z tazkirasini hijriy 945-yilda (milodiy 1538) yakunlagan. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, asarning yozilishiga sabab – zamonasining shoirlarini unutilishdan asrash, ularning nomlarini tarix sahifalarida saqlab qolish istagidir. U bu fikrni asarining “Xotimatul-kitob” qismida ochiq ifoda etadi: zamon o‘tishi bilan fazilat egalari unutilmasin deb shoirlarning hayoti va ijodini qog‘ozga tushirganini ta’kidlaydi.

“Hasht Behisht” tuzilishi jihatidan kirish (muqaddima), sakkiz tabaqa (bo‘lim) va xotima qismlaridan iborat. Asar shaklan sodda ko‘rinsa-da, unda muayyan ilmiy-sistematik tuzilma mavjud. Sahibey tazkirasidagi sakkiz tabaqa – o‘z davrining ijtimoiy va adabiy tabaqalanishini aks ettiruvchi badiiy va tarixiy tasnifdir. Muallif har bir tabaqani “behisht” (jannat) deb atagan bo‘lib, bu, bir tomondan, shoirlarga nisbatan ehtirom, ikkinchi tomondan, ularni fazilat darajasiga ko‘ra tartiblash maqsadini bildiradi.

Sahibey tazkirasini yozishdan avval fors va chig‘atoy tazkira an‘analarini chuqur o‘rgangan. U o‘z asarining muqaddimasida Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” va Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarlarini o‘qib chiqqanini va ulardan ilhom olganini yozadi. Shunday qilib, “Hasht Behisht” bu uch buyuk manbaga tayangan holda yaratilgan bo‘lib, turkiy tazkirachilikning mustaqil yo‘nalishiga asos solgan.

Fors va chig‘atoy adabiyotidagi tabaqot tizimi (ya‘ni shoirlarni tabaqalar bo‘yicha tasniflash) arab adabiyoti an‘analariga borib taqaladi. Sahibey bu uslubni turk adabiyotiga tatbiq etgan birinchi muallif sifatida e‘tirof etiladi [Kılıç, 2002]. Har bir tabaqa o‘ziga xos shaxslar guruhini – sultonlar, davlat arboblari, ulamolar, zamondosh shoirlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Sahibey tazkirasida shoirlar haqida batafsil biografik ma‘lumot berilmaydi; ularning hayoti qisqacha bayon etilib, so‘ngra shoirlik jihatlari baholanadi hamda she‘rlaridan namunalar keltiriladi. Ushbu baholashlar ancha yuzaki xarakterga ega. Sahibey o‘z davrida yashagan barcha shoirlarni tazkirasiga kiritmagan. Soddaligi bilan ajralib turadigan Sehiy Bey tazkirasining eng muhim jihati shundaki, u Onadoli adabiyotida shoirlar tazkirasini yozish an‘anasiga asos solgan, shu orqali ko‘plab shoirlarning unutilib ketishining oldini olgan hamda ayrim shoirlar haqida yagona manba bo‘lib xizmat qiladigan asardir [İpekten, 1986: 39].

Birinchi tabaqa Sulton Sulaymon Qonuniyga bag‘ishlangan. Muallif sultonni qudratli, adolatparvar va she‘riyatda mahoratli deb ta‘riflaydi. Sahibey uchun Qonuniy adolat va san‘atni birlashtirgan ideal hukmdor timsolidir. Ikkinchi tabaqa Qonuniygacha yashab o‘tgan she‘riy iste‘dodga ega sultonlar va shahzodalarga bag‘ishlangan. Unda oltita shaxs zikr etilgan bo‘lib, birinchisi Sulton Murod II, so‘nggisi esa Sulton Korkuddir. Sahibey bu tabaqada davlat boshqaruvi bilan badiiy ijodni uyg‘unlashtirgan hukmdorlarni tilga oladi.

Uchinchi tabaqada davlat arboblari – vazirlar, qozilar, daftardorlar va beylik vakillari haqidagi ma‘lumotlar jamlangan. Ular orasida Ahmad Poshsho birinchi, Ahmad Bey esa oxirgi shoir sifatida keltirilgan. Tabaqadagi shoirlar soni manbalarga qarab 26 dan 28 tagacha farq qiladi. Bu tabaqa davlat xizmatida bo‘lgan ziyolilarni aks ettiradi.

To‘rtinchi tabaqa olim va fozillardan iborat bo‘lib, ilm va adabni uyg‘unlashtirgan shaxslarni o‘z ichiga oladi. Sahibey bu tabaqani alohida ajratish zarurligini asoslab, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning “Ummatimning ulamolari Bani Isroil payg‘ambarlari kabidir” hadisiga tayanadi. Bu tabaqada 16–17 nafar shoir keltirilgan. Ular orasida Hizr Beydan boshlab Lomi‘iygacha bo‘lgan shaxslar bor.

Beshinchi tabaqada tazkira yozilgan paytga kelib vafot etgan shoirlar haqida so‘z yuritiladi. Sahibey ularning hayoti va asarlarini o‘z tadqiqoti asosida yozgan. Tabaqada jami 33 shoir bor. Ulardan birinchisi Shayxiy, oxirgisi esa Qivamiydir. Bu tabaqa muallifning tarixiy manba sifatidagi

tadqiqotchilik qobiliyatini ko'rsatadi. Shu jihatdan bu tabaqa Navoiyning birinchi majlisiga mos keladi.

Oltinchi tabaqa muallif yashagan davrda faol bo'lgan yoki yaqinda vafot etgan shoirlarni o'z ichiga oladi. Ularning ayrimlari bilan Sahibey shaxsan uchrashgan, suhbatlashgan yoki do'stlik qilgan. Shoirlar soni manbalarga ko'ra 56 dan 60 tagacha farqlanadi. Ulardan Najotiy birinchi, Makomiy esa oxirgi shoir sifatida keltiriladi. Bu tabaqa “Hasht Behisht”ning eng boy va adabiy jihatdan sermahsul qismidir.

Yettinchi tabaqada muallifning o'z tengdoshlari, ya'ni zamondoshlari haqida so'z yuritiladi. Ularning ko'pi she'riyatga endi kirib kelayotgan iste'dodli yoshlar edi. Sahibey ularning aksariyatini shaxsan tanigan. Shu tabaqada ikki nafar ayol shoir – Mehri Xotun va boshqa bir ijodkor ham “zikk un-niso” sarlavhasi ostida tilga olingan. Bu tabaqadagi shoirlar soni 37–39 nafar atrofida bo'lib, Zotiydan boshlanadi va Mehri Xotun bilan yakunlanadi.

Sakkizinchi tabaqa yosh, iste'dodli shoirlarga bag'ishlangan. Ular hali to'liq tanilmagan bo'lsa-da, Sahibey ularni kelajakda yuksak badiiy darajaga erishuvchi adiblar sifatida ta'riflaydi. Bu tabaqada 43–49 nafar shoir tilga olingan. Ulardan Abdiy, Usuliy, Tal'atiy, Ishraty va boshqalar keyinchalik turkiy adabiyotda mashhur bo'lishgan. Shunday qilib, Sahibeyning *Hasht behisht* nomli ushbu tazkirasida manbalardagi tafovutlar bilan 230 ga yaqin nafar shoir haqida ma'lumot keltirilgan [Sehi Beg, 2017].

Latifiy va uning tazkisasi haqida. Latifiy tazkisasi hijriy 953-yilda (milodiy 1546) yakunlangan bo'lib, o'sha davr hukmdori Sulton Sulaymon Qonuniyga taqdim etilgan. Asar “Muqaddima”, “Uch fasl” va “Xotima” qismlaridan tashkil topgan. Tazkirada jami 334 nafar shoir haqida ma'lumot berilgan.

Latifiy o'z asarining “Muqaddima” qismiga “Basmala, hamdala va salvala” bilan kirish qilgach, “Dar bayān-i fazīlat-i kalām-i mavzūn va maziyyat-i shu'arā-yi hikmat-payām-i sihrnūmūn” sarlavhasi ostida she'riyatning fazilatlarini bayon qiladi. She'r tarixini Hazrati Odam bilan boshlagan Latifiy, ilk she'r Hazrati Odam tomonidan aytilganini, ya'ni uning o'g'li Hobilni qardoshi Qobil o'ldirgani munosabati bilan yuzaga kelganini ta'kidlaydi.

Tazkiraning yozilish sababi “Sabab-i ta'lif-i kitāb ve bā'is-i tasnif-i mebādi'-i hitāb” sarlavhasi ostida bayon qilinadi. Muallifning hayotiga doir ayrim ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan bu bo'lim, aslida tazkiraning eng muhim qismlaridan biridir. Tazkiraning yozilish sababini Latifiy quyidagicha izohlaydi:

“...Shu yo'l va uslub asosida Rum diyori shoirlarini hamda turkiy iboralar nazm etganlarni belgilangan va mashhur tartibga muvofiq holda ismi va rasmiyati bilan yozib qayd etib, ularning har birining miqdor va sifatini, iste'dod va qobiliyatini imkon qadar bayon va ta'rif etmoqchiman” [Latifi, 2018:]

Muqaddimada keltirilishicha, Latifiy o'sha paytgacha 12 ta kitob va risola yozgan bo'lsa-da, lekin uning tazkira yo'nalishida asar yozish niyati yo'q edi. Bu taklifni unga do'sti Zaifi beradi. Bir kuni u Latifiy huzuriga Jomiyning “Bahoriston”i va Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarlari bilan kelib, uning ham Anadolu shoirlari uchun shunday bir asar yaratishini istaydi. Har qancha “buni uddalay olmayman” deb turib olgan bo'lsa-da, oxir-oqibat bu ishni qabul qilishga majbur bo'ladi [Latifi, 2018].

Tazkiralarning tuzilish va tasnif jihatlaridagi farqlar. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Sahibeyning “Hasht behisht” hamda Latifiyning “Tazkirat ush-shuaro va tabsirat un-nuzamo” asarlari turkiy va turk adabiyotlarida tazkira janrining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini ifodalaydi. Ushbu uch manba o'zaro bog'liq bo'lishiga qaramay, har biri o'z davrining ijtimoiy-madaniy sharoitidan kelib chiqib, turlicha tuzilma va tasnif uslubiga ega. Shu ma'noda bu

uch tazkirani qiyosiy o‘rganish va tadqiq qilish mumtoz ijodkorlarning tazkira janridagi izdoshliklari va novatorliklarini aniqlashga imkon beradi. Zero, “tarixiy holatlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash va ularga tarixiy jihatdan baho berish har qanday tarixiy tadqiqotning shartli elementi hisoblanadi. Qiyoslash o‘rganilayotgan holatning o‘ziga xosligiga (individual, milliy, tarixiy) putur yetkazmaydi, aksincha, qiyoslash, ya’ni o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash yordamida bu o‘ziga xoslikni aniq belgilash mumkin bo‘ladi” [Jirmunskiy, 1979: 77].

Alisher Navoiyning tazkirasida asosan tadrijiylik, ya’ni xronologiya asosida tasnif etilgan bo‘lib, unda har bir shoirning hayoti, asarlari va ijtimoiy-madaniy faoliyati yoritilgan. Navoiy o‘z tazkirasida shoirlarni sakkizta “majlis”ga ajratadi. Bu tasnif ijtimoiy tabaqa asosida emas, balki badiiy salohiyat, mavqe va yaqinlik darajasi asosida tuzilgan. Har bir majlisda shoirlar haqida qisqacha tarjimai hol, shaxsiy taassurotlar va badiiy baholar beriladi. Bu tuzilma o‘rta asr turkiy adabiyotida ijtimoiy-ma’naviy maqomni badiiy qadriyat bilan uyg‘unlashtirgan birinchi tizimli tajriba hisoblanadi.

Sahibey o‘z tazkirasini sakkiz “tabaqa”ga bo‘lar ekan, bunday nom berilishi bejiz emas, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) arabcha-forscha timsol asosida tanlangan. Har bir tabaqa ijtimoiy mavqe va maqomga qarab tuzilgan bo‘lib, unda shoirlar siyosiy yoki ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra tartiblanadi. Masalan, birinchi tabaqada Sulton Sulaymon Qonuniy, ikkinchi tabaqada esa she‘r yozgan shahzodalar va sultonlar joy olgan [Sehî Beg, 2017: 34–36]. Bu tuzilma Navoiydagi majlis tizimidan farqli ravishda siyosiy-ijtimoiy tabaqalanishga asoslangan. Sahibey tazkirasining o‘ziga xosligi shundaki, unda shoirlik fazilati ijtimoiy mansab bilan teng baholanadi. Shu sababli asarda ayrim shoirlar adabiy jihatdan unchalik faol bo‘lmasa ham, davlat lavozimi tufayli yuqori tabaqaga kiritilgan [Sehî Beg, 2017: 41].

Sahibey o‘z asarini Navoiy ta’sirida yozganini tan oladi, biroq u tazkira janrini Onadoli adabiyoti muhitiga moslashtirgan – ya’ni forsiy an’anani turkiy – Usmonli siyosiy tizim bilan uyg‘unlashtirgan. Shu tarzda “Hasht behisht” Onado‘li tazkiranavistikasi uchun asosiy modelga aylangan.

Latifiy tazkirasida esa oldingi ikki asardan sezilarli darajada farqlanadi. U o‘z asarida shoirlarni ijtimoiy maqom yoki yoshga qarab emas, balki adabiy yutuqlari va tanqidiy baho asosida joylashtiradi. Bu jihatdan Latifiyning tazkirasida Navoiynikidan ham, Sahibey asaridan ham farq qiladi: u shoirlarni hujjatli ma’lumotlar asosida tanishtiradi, ba’zilarining she’rlaridan iqtiboslar keltirib, ularning badiiy tahlilini ham beradi. Shu bois Latifiyning asari tazkiraning “tanqidiy-biobibliografik” shakliga yaqin turadi. “Tazkirat ush-shuaro”ning tuzilmasi ancha tizimli: har bir shoir haqida ism va laqab, tug‘ilgan joy, ijodiy yo‘nalish, tazkira muallifining shaxsiy bahosi, she’ridan namunalar keltiriladi. Bu esa Latifiy tazkirasining ilmiy-biografik manba sifatidagi qiymatini belgilaydi. Umuman olganda, uch tazkiraning tuzilma jihatdan asosiy farqi – ularning adabiy va ijtimoiy tasnif mezonlaridadir. Navoiy – badiiy salohiyatga, Sahibey – ijtimoiy tabaqaga, Latifiy esa – tanqidiy va ilmiy asosga tayangan. Shu bois ularning har biri o‘z adabiy muhitining estetik va mafkuraviy ko‘zgusi deyish mumkin.

Shoirlarni baholash mezonlari va adabiy yondashuvdagi farqlar. Alisher Navoiy shoirlarni baholashda asosan badiiy salohiyat, adabiy mahorat va muallifning shaxsiyati bilan bog‘liq munosabat (iliq taassurot yoki tanqidiy qarash)ni asos qilib oladi. Har bir shoir haqida berilgan ta’riflarda adabiy ijod (mavzular, uslub, misollar) bilan birgalikda muallifning shaxsiy fikri ham qat’iy aks etadi. Boshqacha aytganda, Navoiy tazkirasida ko‘pincha shoirning badiiy kamoloti va ma’naviy fazilatlarini birgalikda ta’riflanadi; shuning uchun uning bahosi ham estetik, ham etik-ma’naviy mezonlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Sahibeyning “Hasht behisht” asarida esa shoirlarning ijtimoiy mavqeyi, davlat va saroy bilan aloqalari hamda rasmiy/ma’muriy lavozimlari katta ahamiyatga ega. Dastlabki tabaqalardan

hukmdorlar va yuqori lavozimdagilar joy oladi; bu esa baholashda «maqom» omilining kuchini ko‘rsatadi. Shu ma’nodan Sahibeyning yondashuvi tazkirani nafaqat adabiy to‘plam, balki hukmdorlar elita va uning madaniy-ideologik makonini hujjatlashtiruvchi asarga aylantiradi. Shu bois u ko‘pincha shoirlikni ijtimoiy lavozim bilan parallel baholaydi: ba’zan maqom badiiy mezondan yuqoriroq o‘rin egallaydi.

Latifiy shoirlarni asosan ularning adabiy asarlari va she’riy namunalari qarama-qarshi baholaydi. U tahliliy yondashuvni afzal ko‘radi: har bir shoir haqida manbaviy ma’lumotlar, she’r qoidalari atrofida tahlil va talqinlar – Latifiy asarining asosiy xususiyatidir. Shuning uchun Latifiy tazkirasida tadqiqotchilar uchun eng qimmatli – «ilmiy-biobibliografik» manbadir: muallif ko‘pincha shoirning ijod namunasini faktlar va misollar asosida o‘rganadi, subyektiv ta’riflardan imkon darajasida chetda turadi.

Til, uslub va badiiy yondashuvdagi farqlar. Alisher Navoiy, Sahibey va Latifiy tazkiralaridagi til va uslub tizimi mualliflarning madaniy muhiti, auditoriyasi va maqsadlariga muvofiq tarzda shakllangan. Har bir muallif o‘zining badiiy-estetik mohiyatini ifodalash uchun turli til qatlamlari va uslubiy yo‘nalishlardan foydalangan.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da eski o‘zbek tilining adabiy, badiiy va ilmiy funksiyalarini uyg‘unlashtirgan. Uslub jihatidan asar fors-tojik tazkira an’alariga yaqin bo‘lsa-da, Navoiy tazkirasida o‘z ona tilini adabiy tilda yuksaltirish g‘oyasi ustuvordir. Muallif tazkiraning o‘zida ham, shoirlarni ta’riflashda ham forscha va arabcha so‘zlar bilan bezalgan, ammo tabiiy va ravon turkiy nasr uslubidan foydalanadi. Bu uslubda nafaqat so‘z boyligi, balki badiiy ohang, muallif nutqining fasohati ham seziladi. Misol uchun, Navoiyning birinchi majlisidagi ta’riflar badiiy obrazlar va istioralarga boy bo‘lib, ular “zohirda tazkira, botinda madh” vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Navoiy tilida axloqiy va didaktik ohang mavjud: Navoiy shoirlarni faqat adabiy mahoratiga ko‘ra emas, balki ularning ruhiy kamoloti va axloqiy qiyofasiga ham qarama-qarshi baholaydi. Shu bois, “Majolis un-nafois” til jihatidan ham axloqiy-estetik diskursni o‘zida mujassamlashtirgan, deyish mumkin.

Sahibeyning “Hasht behisht” tazkirasida til jihatidan o‘sha davr Anadolu turkchasining saroy va adabiy shaklini ifodalaydi. Asar ko‘p hollarda forscha va arabcha iboralar bilan to‘yingan bo‘lsa-da, biroq muallifning umumiy uslubi nisbatan soddaroq va xalqonaroqdir. Har bir tabaqaning kirish qismida muayyan diniy-falsafiy iboralar keltirilib, so‘ngra shoirlar haqida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Bu jihatdan asar “davlat-noma” (saroy xronikasi) uslubiga yaqin [Sehî Beg, 2017]. Sahibey o‘z asarida poetik tavsifdan ko‘ra adabiy-hujjatli bayonga urg‘u beradi. Shu bilan birga, ba’zi joylarda muallif o‘z zamonasining she’riy ruhini ifoda etuvchi metaforik iboralardan ham foydalanadiki, bu uning estetik zavqi baland bo‘lganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, “Hasht behisht” til jihatidan forsiy nasr an’alaridan oziqlangan, ammo turkcha ifoda soddaligiga ega bo‘lgan o‘tish davri namunasi hisoblanadi.

Latifiy tazkirasining eng diqqatga sazovor jihati – undagi bayon tilining ilmiy-analitik xususiyatidir. Muallif she’riyatni tahlil qilishda tanqidiy istilohlar, badiiy san’atlar va nazariy tushunchalardan keng foydalanadi. U ko‘plab joylarda shoirlar uslubini bevosita tahlil qilib, o‘z bahosini dalillar bilan asoslaydi [Latifi, 2018]. Til jihatidan asarda Usmonli adabiy turkchasining yuqori darajada shakllangan ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. Latifiyda nafaqat uslubiy soddalik, balki argumentativ mantiq muhim o‘rin tutadi: u fikrni dalil bilan isbotlashni maqsad qiladi, shuning uchun ba’zan tazkira usluban ilmiy maqola ohangini eslatadi. Muallifning o‘ziga xos yondashuvi – metafora o‘rniga tahlil, madh o‘rniga izoh, tarixiy ma’lumot o‘rniga tanqid. Shu jihatdan “Tazkirat ush-shuaro” keyingi turk tazkiralarida tanqidiy tafakkur uchun asos bo‘lgan deyish mumkin.

Demak, aytish mumkinki, uch muallif tilni o‘z zamonasining adabiy va mafkuraviy vositasi sifatida qo‘llagan. Navoiy turkiy tilni badiiy maqomga ko‘targan bo‘lsa, Sahibey uni siyosiy-saroy nutqi darajasida barqarorlashtirgan, Latifiy esa ilmiy-tanqidiy nutqni mukammallashtirgan. Natijada, tazkira janrida “**so‘z estetikasi** → **tarixiy xotira** → **adabiy tanqid**” bosqichlari shakllandi, bu esa o‘z navbatida turkiy adabiyotda ilmiy adabiyotshunoslikning vujudga kelishiga zamin hozirladi.

Tazkiralari va tarixiy-madaniy kontekst. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari fors-tojik tazkira an‘analari, xususan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asaridan manba sifatida oziqlangan bo‘lsa-da, u *Xuroson adabiy muhitining o‘ziga xosligini*, ya‘ni turkiy tilning nufuzi, saroy va madrasa shoirilarning hamkorligini – yangi struktura orqali ifodalaydi. Tazkirada keltirilgan shoirlar tavsifi faqat biografik emas, balki “badiiy-madaniy iqlimni” ham o‘zida aks ettiradi.

Navoiy o‘z asarida nafaqat zamondoshlarini, balki o‘ziga ta‘sir ko‘rsatgan salaf shoirlarni ham tilga olgan; bu jihatdan u “ijodiy merosni davom ettirish” tamoyilini ko‘zlagan. Shu bois, “Majolis un-nafois” adabiy tarixiy xotira va shaxsiy kuzatuv asosida yaratilgan sintez asar sifatida ham baholanishi mumkin.

Sahibeyning “Hasht behisht” asari Onado‘li hududida yozilgan birinchi turkiy tazkira sifatida tarixiy o‘rin egallaydi. Muallifning o‘zi ham asarning muqaddimasida bu ishni “turklar orasida tazkira yozishning ibtidosi” deb ataydi [Sehî Beg, 2017: 33]. Sahibey tazkirasining asosiy manbasi Navoiy tazkirasiga sanalsa-da, u “Majolis un-nafois”dagi tasnif, ifoda va biografik qismlarni o‘z davriga moslashtirgan. Biroq u asarda Devlatshoh Samarqandiy va Navoiy modellarini soddalashtirgan holda, ularni siyosiy-tabaqaviy ierarxiyaga singdiradi.

Muallif o‘z davridagi Usmonli saroy madaniyatini tazkira shaklida hujjatlashtirishni maqsad qilgan. Shu bois asarda tarixiy manba qiymati kuchli: har bir tabaqa ma‘lum bir siyosiy davr, hukmdor yoki zodagonlar davrasini ifodalaydi. Natijada “Hasht behisht” nafaqat adabiy manba, balki XVI asr Usmonli saroyining madaniy tarixini yorituvchi hujjat darajasiga ko‘tarilgan [Sehî Beg, 2017].

Latifiy *Tazkirat ush-shuaro* asarini yozar ekan, undan avvalgi ikki an‘anani – Navoiy va Sahibey tazkiralari chuqur o‘rganadi, ammo oz tazkirasida ko‘proq tanqidiy tahlil yo‘lidan boradi. Asarning kirish qismida u tazkira yozish sababini “haqiqatni ajratish, shoirlar orasidagi fazilatni o‘lchash” bilan asoslaydi [Latifi, 2018: 20]. Latifiy uchun asosiy manba sifatida “Hasht behisht” xizmat qilgan bo‘lsa-da, u Navoiy uslubidan ham ko‘plab unsurlarni (masalan, she‘r namunalarini keltirish, shaxsiy mulohaza berish, didaktik yakunlar) oladi. Ammo bu unsurlar hujjatli va tanqidiy tafakkur mezonlari asosida qayta ishlanadi.

Demak, aytish mumkinki, har bir muallif o‘z tazkirasida avvalgi an‘analarni davom ettirib, ularni yangi ijtimoiy-madaniy kontekstda qayta talqin qilgan: Navoiy – tazkira janriga milliy va badiiy ruh bag‘ishladi; Sahibey – uni davlat va elita madaniyati kontekstiga olib kirdi; Latifiy – tazkirani adabiy tanqid va bibliografiya janriga aylantirdi.

Xulosalar:

1. Alisher Navoiy, Sahibey va Latifiy tazkiralari turkiy adabiyotda tazkiranavislikning uch bosqichini ifodalaydi: *badiiy-ensiklopedik, tarixiy-saroy va tanqidiy-biobibliografik* bosqichlar. Har uch muallif tazkira janriga o‘ziga xos uslub va ilmiy ruh olib kirgan, ularning faoliyati orqali tazkira nafaqat “shoirlar to‘plami”, balki madaniy, ijtimoiy va estetik tafakkur ko‘zgusi sifatida shakllangan.

2. Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asari bilan tazkiranavislikni ma‘naviy-adabiy xotira shakli sifatida mustahkamlagan. Uning tazkirasida biografik tafsilotlardan ko‘ra shoirning ruhiy-ma‘naviy portreti muhim o‘rin tutadi. Shu bois bu asarni “badiiy-biografik tazkira” sifatida tavsiflash to‘g‘riroq. Sahibey esa “Hasht behisht”da bu modelni Usmonli saroy muhitiga ko‘chirgan holda, tazkiraning ijtimoiy-hujjatli shaklini yaratdi. Uning asari, avvalo, madaniy siyosatini ifoda etadi,

ya’ni sultonlik davrasida ijod qilgan shoirlar “adabiy elita” sifatida tarixiy hujjatlashtirilgan. Latifiy esa bu ikki an’anani birlashtirib, tazkirani tanqidiy-adabiy tadqiqot shakliga olib chiqdi. Uning tazkirasida shoirlar faqat tarixiy shaxs emas, balki adabiy obyekt sifatida tahlil qilinadi. Shu bois “Tazkirat ush-shuaro” turkiy adabiyotda “ilmiy adabiyotshunoslik” uchun dastlabki metodik namuna bo’lgan deyish mumkin.

3. Har uch muallifning dunyoqarashi o’z davrining mafkuraviy paradigmasi bilan chambarchas bog’liq: 1) Navoiy – Temuriylar davridagi ma’naviy uyg’onish va til siyosatining adabiy timsolidir; 2) Sahibbey – Usmonli imperiyasining siyosiy markazlashuv davrida “adabiy tartib”ni ifodalagan ijodkor; 3) Latifiy – XVI asrdagi tanqidiy tafakkurni namoyon qila olgan muallif.

4. Bu evolyutsiya tazkira janrini shunchaki shoirlar ro’yxatidan milliy adabiyot tarixi konsepsiyasiga aylantiradi. Har bir tazkira endi alohida madaniyat modelini ifodalaydi: “Majolis un-nafois” – ma’naviy-axloqiy adabiyot modeli; “Hasht behisht” – siyosiy-elitar adabiyot modeli; “Tazkirat ush-shuaro” – tanqidiy-ilmiy adabiyot modeli.

Umuman olganda, “Majolis un-nafois”, “Hasht behisht” va “Tazkirat ush-shuaro” asarlari turkiy xalqlar madaniyat tarixida o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan, ammo har biri mustaqil ilmiy va estetik qadriyatga ega uch bosqichni tashkil etadi. Bu tazkiralalar orqali turkiy adabiyotda: shoir shaxsining ruhiy-badiiy talqini (Navoiy), shoirning ijtimoiy mavqei va tarixiy o’rni (Sahibbey), shoir ijodining tanqidiy va ilmiy tahlili (Latifiy) vujudga keldi.

Foydalanilgan dabiyyotlar

1. Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9 jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2011.
2. Açıkgöz, N. Latifiy Tezkiresi ve Kaynak Olarak Değeri. *Türkiyat Mecmuası*, – № 14, 1996. 45–68.
3. Ateş, A. Tezkireler ve Şair Tezkireciliği. – İstanbul: Üniversite Yayınları, 1954.
4. Болтабоев Х. Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси // *Жаҳон адабиёти*, 2013. – № 2.
5. Browne, Edward G. The Tadhkiratu ‘sh-Shu’arâ (“Memoirs of the Poets”) of Dawlatshâh. London: Luzac & Co.; Leiden: E. J. Brill, 1901.
6. Devletşah Samarqandî. Tazkiratü’ş-şuarâ (E. G. Browne, tahrir va nashr). Leiden: Brill, 1887.
7. Eraslan, K. Ali Şir Nevâî: Mecâlisü’n-nefâis. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1996.
8. İpekten H. *Türk Edebiyatının Kaynaklarından Türkçe Şuara Tezkireleri*. Erzurum, 1986).
9. İsen, M. Şair Tezkireleri ve XVI. Asır Tezkireciliği. – Ankara: Akçağ, 1994.
10. Köprülü, F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1928.
11. Latifi. Tezkiretü’ş-Şu’arâ ve Tabsiratü’n-Nuzamâ (hazırlayan: Rıdvan Canım). – Ankara, 2018.
12. Муртазоев Б. “Лубобу-л-албоб” тазкираси сирлари // *Modern Science and Research*, 3(6). 2024.
13. Rypka, J. History of Iranian literature. Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1968.
14. Sehî Beg. Heşt Bihişt (hazırlayanlar: Halûk İpekten, Günay Kut, Mustafa Isen, Hüseyin Ayan, Turgut Karabey). – Ankara, 2017.
15. Ünver, M. Osmanlı şuarâ tazkiralari üzerine araştırmalar. – İstanbul: Kitabevi Yayınları, 2009.
16. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М.: Наука, 1979.
17. Юсупова Д. Мажолис ун-наfois / Алишер Навоий: комусий луғат. – Тошкент: Шарк НМК, 2016.
18. Yusupova D. Latifiy tazkirasida Navoiy izdoshlari talqini // XXI asr tilshunosligi: tahlil va talqin, 2025 (oktabr, maxsus son). – B. 84-91.
19. Asadov, M. (2025, July). HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).

MUNDARIJA		
I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI		
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАВОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik in’shasinda halk biliminin ishlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantilari	190

41.	Farhad RAHIMI. Nezirali'nin Çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine iii	196
42.	Сырга ОРУНБАЕВА, Долон МАЛДЫБАЕВ, Сагынбек ОРУНБАЕВ, Минаим МЫРЗАКМАТОВА, Жумакадыр КАРАМОЛДОЕВ. Горы и их лингвистические особенности: типология высот и культурных различий	215
43.	Saodat MUHAMMEDOVA, Kosimboy MAMUROV. Reforming the Uzbek latin alphabet: balancing phonology and global usability	221
44.	Jamoliddin YOQUBOV. O‘zbek va fransuz tillarida “ona” leksemasi ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari	223
45.	Valijon VOSITOV. Inkor kategoriyasi lingvistik voqelik sifatida	228
46.	Khushnuda SAMIGOVA. Identifying the semantic component of affectionate form	230
47.	Nargiza DOSBAYEVA. Specific features of intercultural interaction in the course of teaching foreign languages	234
48.	Наргиза РАШИДОВА. Арабские заимствования в узбекском языке	237
49.	Ulugbek KARIMOV. Evolution of the cyborg in 21st-century science fiction	240
50.	Kamola ABDULLOEVA. Diskursiv shaxsning grafik vositalar orqali aks etishi	243
51.	Malohat BADALBAYEVA. The special lexicon of emergency situations in global linguistics	246
52.	Nargiza MIRZALIYEVA. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari: badiiy tahlil va qiyosiy yondashuv	250
53.	Azizjon SHARIPOV. Yozma manbalarda Hirotning tarixiy toponimikasiga doir ma’lumotlar: Shohrux Mirzo davri	253
54.	Марина ИСКАКОВА. Тюркоязычный мир от древности	263
55.	Nargiza YUSUPOVA. The impact of artificial intelligence on comparative philology and translation studies	268
56.	Feruzaxon KARIMOVA. Aksiolingvistikada ma’naviy qadriyatlar talqini	272
57.	Zebiniso BEKMURADOVA. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili	276
58.	Sabohat QAHHAROVA. Yassaviy hikmatlarining lingvokulturologik tahlili	279
59.	Dildora KENJAYEVA. “Boburnoma”da antroponimlarning etimologik o‘ziga xosligi	283
60.	Gulchexra IBRAGIMOVA. Ingliz tilida abbreviatura va akronimlarning lingvistik tahlili	287
61.	Asror YUSUPOV. Lug‘at maqolasi strukturasi nazariyasining rivojlanishi	289

III SHO‘BA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI		
62.	Islamjan YAKUBOV. Rudakiy adabiy-estetik qarashlari va lirik qahramon kechinmalari	293
63.	Islamjan YAKUBOV. Tragik konflikt, tragik holat va tragik qahramon	299
64.	Dilnavoz YUSUPOVA, Kemal Yavuz ATAMAN. Uch tazkira qiyosi	308
65.	Gulnoz XALLIEVA, Sitora SHAHOBOVA. “Middlemarch” va “Anna Karenina” asarlarida ayol obrazining o‘rni	316
66.	Bahodir XOLIQOV. Britaniya adabiyoti va o‘zbek mifologiyasida daydi yog‘dularning badiiy xususiyatlari	320
67.	Gulnoz XALLIYEVA, Farangizbonu ADAMOVA. “Jek Raymond” romanida Jek obrazi tahlili	323
68.	Nuriddin ALTINBOYEV. Qiyosiy tahlilda tipologiya va ta’sir fenomeni	326
69.	Gulnoz XALLIYEVA, Iroda ABDULLAYEVA. The nature of satirical characters in the works of Jonathan Swift	330
70.	Mohinur SOTVOLDIYEVA, Gulnoz KHALLIEVA. The poetics and typology of father figures in world literature: a comparative study	333
71.	Xafiza KUCHKAROVA. Badiiy adabiyotda peyzajning o‘rni	336
72.	Dilafro‘z QAHNAROVA. Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar	340
73.	Elmira HAZRATQULOVA. Temuriylar davri adabiy muhitida ustoz-shogird munosabatlari	344
74.	Тоҳир ТУРДИБОЕВ, Нигора ЖЎРАЕВА. Беҳбудий таълимотида ижтимоий-маърифий масалалар	347
75.	Ma’suma OVIDJONOVA. Ingliz va o‘zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari	351
76.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сўлтан САНИЯТ. Türk masallarında hayvan motifleri: geyik motifinin kültürel yansimalari	357
77.	Эльмира АДИБЕКОВА, Сая БЕРІКҚЫЗЫ. Türk-islam kimliginin sembolü olarak Носа Ahmet Yesevi türbesi	368
78.	Эльмира АДИБЕКОВА, Гүлнұр ЕСЕНГЕЛДІ. Karaşaş Ana türbesi ve halk inançlarında kadın Evliya imgesi	375
79.	Дильфуза МАМЕТОВА, Малика ПРИСТАЕВА. Keloğlan ile padişahin kizi masalinin Anadolu, Uygur, Gagavuz varyantlarında kahraman ideali	383
80.	Карлыгаш БОРБАСОВА, Какимжан БИШМАНОВ, Мира БАЛТЫМОВА. Сравнительный анализ текстов Корана, Библии и Торы по проблеме межрелигиозного диалога и укрепления общенационального единства	394
81.	Улжан ТУНГАТОВА, Алуа АЛШЕР. Сравнительный анализ идей толерантности в Коране и Библии	400
82.	Ляззат АЛИЕВА, Möldir NIŞANHAN. Masalların mitolojik mirasi: şamanizm ve islam’in izleri	404